

## TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

Mahmudova Yulduz

**Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi (kechki) yo'nalishi 1-bosqich talabasi**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17761892>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya jarayonining mohiyati, uning asosiy qonuniyatlari hamda zamonaviy pedagogik tamoyillari tahlil qilinadi. Tarbiya jarayonining ijtimoiy mohiyati, maqsadga yo'naltirilganligi, tizimlili, izchilligi, individuallashtirilganligi va motivatsiya jarayonlari bilan bog'liqligi ilmiy-nazariy yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, tarbiya tamoyillarining insonparvarlik, demokratik yondashuv, uzluksizlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holdagi yondashuv pedagogik jarayondagi amaliy ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari, uzluksizlik, insonparvarlik, ijtimoiylashuv, shaxs rivoji.

**Kirish.** Tarbiya insoniyat taraqqiyotining eng qadimiy va uzluksiz jarayonlaridan biridir. Jamiyatning bugungi kuni va ertangi istiqboli, avvalo, yosh avlodning qanday ruhda, qanday ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida voyaga yetishiga bog'liq. Shu bois tarbiya nafaqat pedagogikaning asosiy yo'nalishi, balki davlat siyosati, ijtimoiy hayotning ustuvor sohasi, ma'naviy-ma'rifiy tizimning markaziy bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi. Mustaqillikdan keyingi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar tarbiyani zamonaviy ilmiy asoslarda tashkil etish, yosh avlodning barkamol shaxs bo'lib kamol topishini ta'minlashga qaratilgan sifat jihatdan yangi yondashuvlarni shakllantirdi.

Tarbiya jarayonining samaradorligi, avvalo, uning ichki qonuniyatlarini to'g'ri anglash va ularga tayanib ishlashga bog'liq. Tarbiya qonuniyatlari bu tarbiyaviy jarayonda doimo takrorlanib turadigan, barqaror, obyektiv ravishda namoyon bo'ladigan bog'lanishlar bo'lib, ular pedagogik jarayonning mohiyati va yo'nalishini belgilaydi. Mazkur qonuniyatlarni bilish tarbiyachi faoliyatini ilmiy asoslashga, tarbiyaviy ta'sirning natijasini oldindan prognoz qilishga, tarbiya jarayonini rejalashtirish va boshqarishda yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

### ASOSIY QISM

Tarbiya tamoyillari esa shu qonuniyatlardan kelib chiqadigan amaliy qoida va talablar bo'lib, tarbiya jarayonini tashkiliy, mazmuniy va uslubiy jihatdan yo'naltirib turadi. Insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, uzluksizlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalash kabi tamoyillar hozirgi zamon pedagogikasida ustuvor o'rin egallaydi. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamlashtirish, axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi, globallashtirish jarayonlari, oila va maktabning tarbiyadagi rolini qayta baholash kabi omillar tarbiyaning mazmuni va mexanizmlariga yangi talablar qo'ymoqda. Shu bois tarbiya qonuniyatlarini chuqur tadqiq etish, ilmiy asoslangan tamoyillardan oqilona foydalanish, zamonaviy tarbiyaviy metodlarni qo'llash yoshlar dunyoqarashi, ma'naviy immuniteti, ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya pedagogika fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, shaxsning ma'naviy, axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishiga yo'naltirilgan tizimli jarayondir. Tarbiyaning mazmuni jamiyat taraqqiyoti, milliy qadriyatlar, mafkuraviy tamoyillar, davlat

siyosati, ijtimoiy madaniyat darajasi bilan bevosita bog'liq. Shaxs rivoji haqida A. Maslou, L. Vygotskiy, J. Dewey kabi olimlarning g'oyalari tarbiyaviy jarayonda shaxsning ehtiyojlari, motivlari, faoliyat jarayonida kamol topishi kabi nazariy asoslarni tashkil qiladi. Tarbiyaning zamonaviy yondashuvi shaxs markaziga yo'naltirilgan bo'lib, unda o'quvchi faqat ta'sir obyektiga emas, balki jarayonning faol sub'yektiga aylantiriladi. Bu yondashuv tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida hamkorlik, o'zaro ishonch, hurmat va mas'uliyatni talab etadi. Tarbiya qonuniyatlari bu pedagogik jarayonning mohiyatini belgilovchi barqaror, obyektiv, doimiy aloqalar va bog'lanishlar tizimidir. Quyida asosiy qonuniyatlarning ilmiy sharhi beriladi. Tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti bilan belgilanadi. Masalan, O'zbekistonda yangi O'zbekiston konsepsiyasi, milliy qadriyatlar, ma'naviy tiklanish jarayoni tarbiya mazmunini ham belgilab beradi. Bu qonuniyatga ko'ra tarbiya:

- jamiyat mafkurasi va milliy tiklanish jarayoni bilan uyg'un bo'lishi;
- zamon talablari va texnologik taraqqiyotga moslashishi;
- yoshlarni ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiya qilishi lozim.

Har qanday tarbiyaviy jarayon oldindan belgilangan aniq maqsadsiz samarali bo'lmaydi. Maqsadning aniqligi tarbiyaning g'oyaviy yo'nalishini, usullarni tanlashni va natijani baholashni belgilaydi. Zamonaviy tarbiyaning maqsadi barkamol, mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy boy, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish. Tarbiyaviy ta'sirlar o'zaro bog'liq bo'lishi, izchil davom etishi va tizim sifatida ishlashi zarur. Tasodifiy tarbiyaviy faoliyat barqaror natija bermaydi. Tarbiyada:

- bosqichma-bosqichlik,
- mantiqiy izchillik,
- ichki bog'lanishning uzluksizligi muhim hisoblanadi.

Shaxsning kamolga yetishi faqat nazariy ta'sir bilan emas, balki amaliy faoliyat jarayonida ro'y beradi. Vygotskiy ta'kidlagan "faoliyat shaxs rivojining asosiy omili" tamoyili tarbiyaning ham poydevoridir. Faoliyat turlari: o'quv, mehnat, madaniy-ma'rifiy, jismoniy, ijodiy faoliyatning barchasi tarbiya samaradorligini oshiradi. Har bir bola takrorlanmas individual psixologik xususiyatlarga ega. Tarbiya shaxsning qobiliyati, xarakteri, temperamentiga mos bo'lishi kerak. Bu qonuniyat individuallashtirilgan tarbiyani zarur qiladi. Demak, tarbiyachi bir xil metod bilan barcha bolaga ta'sir qila olmaydi yondashuv mos bo'lishi lozim.

Tarbiyachi tarbiya jarayonining bosh sub'yektidir. Uning ma'naviyati, bilim darajasi, muloqot madaniyati, metodik mahorati tarbiya natijasini belgilaydi. Shuning uchun tarbiyachi shaxsiy namunasi, odobi, munosabati muhim pedagogik omildur. Zamonaviy tarbiya jarayonida quyidagi texnologiyalar muhim ahamiyatga ega:

- Interfaol metodlar (bahs-munozara, "aqliy hujum", keys-stadi);
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- Loyiha asosida o'qitish;
- Masofaviy va raqamli tarbiya metodlari;
- Qadriyatlar asosida tarbiya texnologiyasi.

Bu texnologiyalar tarbiyaviy jarayonning sifat va samaradorligini oshiradi, yoshlarni mustaqil fikrli va faol shaxs sifatida shakllantiradi.

### **Xulosa**

Tarbiya jarayoni jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va shaxsning har tomonlama kamol topishida muhim o'rin tutadigan murakkab, izchil va ilmiy asoslangan pedagogik tizimdir. Tarbiya jarayonining ijtimoiy shartlanganligi, maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va tizimlilik, shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqligi, faoliyat bilan uzviy aloqadorligi kabi qonuniyatlar tarbiyaning nazariy poydevorini tashkil etadi. Mazkur qonuniyatlar tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun tarbiyachi oldiga aniq vazifalar qo'yadi va unga ilmiy yo'nalish beradi. Tarbiyaning insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilganlik, uzluksizlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, hayot bilan bog'liqlik kabi tamoyillari esa amaliy jihatdan tarbiya jarayonini tashkil etishning muhim metodik asoslaridir. Ushbu tamoyillar tarbiyaviy jarayonni zamonaviy, demokratik va innovatsion ruhda tashkil etishga xizmat qiladi. Bugungi globallashtirish, raqamlashtirish va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida tarbiya jarayonini yangicha mazmun bilan boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, shaxsning ma'naviy immunitetini mustahkamlash ham pedagogik amaliyotning dolzarb vazifasiga aylangan.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Xolmatov X., Musurmonova O. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019. 368 b.
2. To'xtayev S. *Pedagogika asoslari*. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2016. 310 b.
3. Qodirov L., Ochilov A. *Tarbiya nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: "O'qituvchi", 2014. 256 b.
4. Saidahmedov N. *Pedagogik texnologiyalar asoslari*. Toshkent: "O'qituvchi", 2003. 224 b.
5. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press, 1978. 159 p.
6. Hoshimov K., Axmedov T. *Pedagogik mahorat*. Toshkent: "Fan", 2010. 200 b.
7. Qodirova F., Sultonova D. *Pedagogika va psixologiya asoslari*. Toshkent: "Noshir", 2020. 276 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori: "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 2019-yil, 5-may.